


**Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik****2018 yil yanvar-dekabr**

Sirdaryo viloyatida hozirgi vaqtida kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofligini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Natijada, 2018 yilning yanvar-dekabrida 1354 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,9 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo tarmog'ida (25,6 %), sanoat tarmog'ida (19,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida (17,4 %), qurilish tarmog'ida (16,0 %), boshqa tarmog'larda (8,6 %) tashkil etilgan.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**

**2018 yilning yanvar-dekabrida kichik  
tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>o'lchov birligi</b>	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>	<b>(+/-)</b>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>7462</b>	<b>8318</b>	<b>856</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1189</b>	<b>1354</b>	<b>165</b>
YaHM %	%	76,5	76,9	0,4
Sanoat	%	49,1	52,1	3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,2	98,7	0,5
Investitsiya	%	44,8	48,3	3,5
Qurilish	%	89,2	92,5	3,3
Savdo	%	92,1	93,6	1,5
Xizmatlar	%	65,9	63,3	-2,6
Yuk tashish	%	94,9	95,8	0,9
Yuk aylanmasi	%	93,8	95,6	1,8
Yo'lovchi tashish	%	96,7	96,8	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,1	98,3	0,2
Eksport	%	71,9	70,8	-1,1
Import	%	91,5	92,5	1,0


2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Sardoba tumanida 31,4 birlikda, Oqoltin tumanida 21,4 birlikda, Sayxunobod tumanida 20,7 birlikda va Guliston tumani va Sirdaryo tumanlarida 18,8 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 16,4-12,2 birlik oralig'ida Mirzaobod tuman, Yangier shahar, Sardoba tumanlarida aniqlandi. Shirin shahrida 9,5 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

### **2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 16,9 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 18,0 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 1,1 birlikka ko'paydi.

## Kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.




2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes) ning sanoatdagi ulushi 52,1 %, qurilishda – 92,5 %, investitsiyada – 48,3 %, savdoda – 93,6 %, eksportda – 70,8 %, importda – 92,5 % va xizmatlar sohasida – 63,3 % tashkil etdi.

### 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi



2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 76,9 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-dekabrda 76,5 %).

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining ko'payishi dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %



**2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>52,1</b>	<b>92,5</b>	<b>63,3</b>	<b>48,3</b>
<i>shaharlari:</i>				
Guliston shahar	75,8	96,8	38,7	38,8
Yangier shahar	64,7	86,9	93,5	49,0
Shirin shahar	1,2	98,4	97,3	41,4
<i>tumanlari:</i>				
Oqoltin tuman	43,4	89,5	92,1	15,8
Boyovut tuman	72,6	99,9	85,7	9,8
Sayxunobod tuman	70,8	91,6	42,1	41,8
Guliston tuman	52,9	99,9	94,0	23,9
Sardoba tuman	41,6	99,9	80,0	26,5
Mirzaobod tuman	100,0	79,1	96,6	65,1
Xovos tuman	86,3	74,8	94,0	22,9
Sirdaryo tuman	64,6	89,3	93,8	84,1

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod tumani (100,0 %), Xovos tumani (86,3 %), Guliston shahri (75,8 %) ni tashkil etadi.

Qurilishda – Sardoba tumanı (99,9 %), Guliston tumanı (99,9 %), Boyovut tumanı (99,9 %) va Shirin (98,4%) shahri tashkil etadi.


Xizmatlar sohasida Mirzaobod tumani (96,6 %), Sirdaryo tumani (93,8 %), Guliston tumani (94,0 %), Shirin shahri (97,3 %), Oqoltin (92,1 %) va Xovos (94,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Sirdaryo tumanı (84,1 %), Mirzaobod tumani (65,1 %) va Yangier shahri (49,0 %) ni tashkil etadi.


2018 yilning yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2574,8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 52,1 %) yoki 2017 yilning yanvar– dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 115,5 % ni tashkil qildi;
- 1041,0 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 48,3 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 120,7 % ni tashkil qildi;
- 678,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 92,5 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 113,0 % ni tashkil qildi;
- 1228,6 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 63,3 %), 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 105,4 % ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 93,6 % yoki 2130,0 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 105,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 93,1 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 70,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 10,8 mln. AQSh dollariga yoki 10,4 % ga kamaygan;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,8 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,6 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 3,4 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 98,3 % ) ko`payishi ta`minlandi.

### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)




## 2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Guliston shahri (561,7 mlrd.so'm), Sirdaryo (922,1 mlrd.so'm), Boyovut (221,9 mlrd.so'm) va Mirzaobod (293,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (18,8 mlrd.so'm) va Sardoba tumanida (54,3 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




## 2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (795,4 mlrd.so'm), Sirdaryo (241,6 mlrd.so'm), Guliston (190,7 mlrd.so'm), Sardoba (193,5 mlrd.so'm) va Mirzaobod (156,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




## 2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (257,7 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (78,3 mlrd.so'm) va Yangier (52,6 mlrd.so'm) shaharlarida qayd etildi.



## 2018 yil yanvar- dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (367,6 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (237,5 mlrd.so'm), Yangier shahri (138,9 mlrd.so'm) va Mirzaobod (88,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil IV-chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 40 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Ulardan sanoat korxonalari soni - 7 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 17,5 %), qurilish – 7 ta (17,5 %), savdo – 11 ta (27,5 %), xizmatlar sohasi - 8 ta (20 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 7 ta (17,5 %) ni tashkil qildi.

### 2018 yil IV - chorak bo`yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Guliston shahrida – 32,5 %, Sirdaryo tumanida – 10,0 %, Oqoltin tumanida - 10,0 %, Yangier shahri, Xovos tumanı, Mirzaobod tumanı, Guliston va Sayhunobod tumanlarida 7,5 %, Boyovut tumanida – 5%, Shirin shahri va Sardoba tumanida – 2,5 % ni tashkil qildi.


### **2018 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 85,7 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 14,3 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 18,2 % va 72,7 %, xizmatlar sohasida – 12,5 % va 87,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 14,3 % va 85,7 %, sanoatda – 28,6 % va 42,9 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 28,6 %, qurilishda – 25,0 %, savdoda – 9,1 % ni tashkil qildi.

### **Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %**



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda** 57,1 % sanoat korxonalari, 54,5 % – savdo, 50,0 % – xizmatlar, 42,9 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 85,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

### **Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

### **Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

B.Mamadaliev

Tel.: (0371) 230-86-16